

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY
MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTEBLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJYI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Azzamxodjaeva Shaxnoza Saiddmatmabovna</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абборова Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFKAT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

A LEXICOGRAPHIC APPROACH TO TRANSLATING LINGUOCULTURAL UNITS IN PUBLICISTIC TEXTS

Yusupov Asror

Senior Lecturer,

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand

Reviewer: O'.O'.Kuldoshov — Associate Professor of the Department of Translation Theory and Practice, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract. This article discusses the importance of a lexicographic approach in translating linguocultural units found in publicistic texts. It explores the preservation of the meaning and national-cultural characteristics of linguocultural units. The article provides practical recommendations for translators on effectively utilizing lexicographic resources during the translation process.

Keywords: dictionary, lexicography, cultural context, linguocultural unit, translation, cultural information.

PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV

Yusupov Asror

Katta o'qituvchi,

Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Taqrizchi: O'.O'.Qo'ldoshov — SamDChTI Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada publitsistik matnlarda uchrovchi lingvokulturologik birliklarni tarjima qilish jarayonida leksikografik yondashuvning ahamiyati borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, lingvokulturologik birliklarning mazmuni va milliy-madaniy xususiyatlarini saqlab qolish masalalari tahlil qilinadi. Maqola tarjima jarayonida leksikografik resurslardan samarali foydalanish usullarini qo'llash borasida tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: lug'at, leksikografiya, madaniy kontekst, lingvomadaniy birlik, tarjima, madaniy axborot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N41>

Kirish. Publitsistik matnlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi muhim manba sifatida til va madaniyatning bir-biriga ta'sirini chuqur o'rganish imkonini beradi. Ushbu matnlarda lingvokulturologik birliklar, ya'ni ma'lum bir xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi til vositalari keng qo'llaniladi. Bunday birliklarning tarjimasi esa nafaqat leksik, balki madaniy kontekstni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

O'zbek tilidagi publitsistik matnlarda lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishda lug'atlarning o'rni va ahamiyati katta ahamiyat kasb etadi. Leksikografik yondashuv bu birliklarning mazmunini izchil ochib berish va ularni boshqa tilga samarali tarjima qilishda muhim vosita hisoblanadi. Publitsistik uslubda ko'p hollarda milliy madaniyat va urf-odatlarga

xos tushunchalar, atamalar qo'llaniladi. Bu kabi birliklarni tarjima qilishda oddiy so'zma-so'z tarjima yetarli bo'lmasligi mumkin. Chunki publitsistik tilni tarjima qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni boshqa turlardagi uslublardan ajratib turadi. Publitsistik matnlar tarjima aktlarini va yangiliklarni aks ettiradi hamda axborotni uzatadi. U asl denotativ (asosiy ma'no ifodalaydigan) matn bo'lib, uslubi hamda tuzilishi jihatidan nisbatan tarjimonga muammo tug'dirmaydi, lekin ayrim hollarda axborot matni tilida uchrovchi, alohida leksikografik yondashuvni talab qiluvchi madaniy birliklar tarjimasiga oid qiyinchiliklarga duch kelinadi hamda tarjimon tomonidan qo'shimcha vaqt va mehnat talab etadi. Publitsistik matnlar tilning lug'at tarkibidagi o'zgarishlarini ham o'zida muntazam aks ettirib boradi. Y.Odilov ta'kidlaganidek, publitsistik va boshqa uslublarda qo'llanayotgan yangilik bo'yog'ida bo'lgan lingvomadaniy birliklar o'zbek lingvomadaniyatida yangi tushunchalarning nomi sifatida paydo bo'lmagan, aksincha, til leksikografiyasida mavjud bo'lgan tushunchani maxsuslashtirish zaruriyati sababli yuzaga kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ishimizda mavzu ko'lamidan kelib chiqib qiyosiy tahlil, leksikografik tahlil hamda sotsiolingvistik tahlil metodi kabi tadqiqot metodlari tanlangan va shular asosida publitsistik matnlarda uchrovchi lingvokulturologik birliklar tarjimasiga doir tahlillar olib borilgan. Qilingan tahlillar natijasida olingan xulosalar ishning asosiy mazmunini ham ifodalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarjimon asliyat matnini o'qib boshlashidanoq matn tarjimasi uchun tarjima usulini tanlaydi. Alekseeva ta'kidlashicha: "Tarjimon matnning lingvoetnik va lingvomadaniy xususiyatlarini faol ravishda tushunishi kerak, chunki bu xususiyatlar ko'pincha matnda jamlanmagan holda, balki tarqoq yoki shifrlangan shaklda bo'ladi. Tarjimonning vazifasi bu xususiyatlarni umumiy bilim faoliyati asosida aniqlashdir". [1, 69]

Shuni ta'kidlash joizki, tarjimonning tarjima jarayonidan oldin leksikografiyaning zaruriyati va ahamiyati aniqlab olishi tarjima jarayonida katta rol o'ynaydi. Tarjima faqat bir tildan ikkinchi til tizimiga emas, balki kengroq madaniy va ijtimoiy kontekstlarni o'z ichiga oladi hamda bir tilning madaniy axborotini boshqa tilga madaniy transferini anglatadi. Tarjimoni "madaniy transfer" hodisasi sifatida tushunish H. Vermeerning qarashlariga xosdir. Uning fikricha, tarjimaning eng muhim jihati yangi madaniy muhitda qanday faoliyat yuritishidadir. [5, 12] Chunki tarjimon asliyat tili madaniy muhiti va olamida erkin keza olsagina madaniy tarjimada muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Shu o'rinda tarjimaga "doimiy dolzarb madaniy kategoriya" sifatida qarash lingvomadaniy tarjima nazariyasida aks etadi. [2, 23]

Tahlil va natijalar. Zamonaviy axborot vositalari matn yaratish borasida tilning mavjud leksik birliklar bazasi bilan, shuningdek, tilga yangi o'zlashayotgan birliklar bilan ham muntazam tizimli ish olib boradi. Misol tariqasida aytish mumkinki, "keyingi paytlarda publitsistik uslubda innovatsiya so'zi juda faollashdi". Mazkur leksemaning tub leksikografik mazmunini bilmasdan uning ma'nodoshi hisoblangan "yangilik" leksemasining o'rnida qo'llanishini boshlandi, biroq "o'zbekcha yangilik so'zi, umuman, "yangi holat, yangi ekanlik"ni yoki "ilgari ma'lum bo'lmagan, yaqindagina paydo bo'lgan narsa yoki hodisa; yangi xabar, ma'lumot"ni, innovatsiya so'zi esa "bozor talab qiladigan mahsulotlarning sifati va samaradorligini oshirish uchun joriy etilgan yangilik" ma'nosini bildiradi. [3, 2]

Yuqoridagi misoldan lug'atlarning yana bir ahamiyatli jihatini ko'rish mumkin: ular turli xil tarjima variantlarini taqdim etadi va bu orqali tarjimon yanada to'g'ri va aniq ekvivalentni tanlay oladi.

Publitsistik matnlar tarjimasi matnlar almashinuvi orqali qabul qiluvchi madaniyatlarning ma'naviy makonlarini kengaytirish va ularning jahon ma'naviy makonidagi o'z-o'zini identifikatsiya qilishiga hissa qo'shadi. Bu jarayon faqatgina kategoriyalangan konseptlar, ma'nolar va g'oyalarni qabul qilish bilan emas, balki tushunish vositalarini kengaytirish orqali ham amalga oshadi.

Tarjimon o'zbek tilida yaratilgan publitsistik matnni tarjima qilishga kirishishdan oldin tarjima oldi jarayonlarini to'liq amalga oshirishi lozim:

- matnning stilistik xususiyatini aniqlash;
- maqsadli auditoriyaga moslashish;
- tarjima strategiyasini tanlash;
- lug'at va ma'lumot manbalarini tayyorlash.

Quyidagi misolga e'tibor qaratsak:

*"Navoiy shahri markazidagi maydonga o'rnatilgan **Yangi yil archasi** balandligi 30 metrni tashkil etadi."*

Mazkur publitsistik matndan olingan gapda qo'llangan "yangi yil archasi" o'zbek lingvomadaniyatida dastlab mavjud bo'lmagan, lekin rus va boshqa Yevropa xalqlari lingvomadaniyati ta'sirida paydo bo'lgan. Yangi yil archasi ingliz lingvomadaniyatida *"Christmas tree"* va *"New Year tree"* tarzida qo'llanadi. Ushbu so'zlarning leksikografik xususiyatlarini quyidagicha:

Christmas tree – odatda Rojdestvo (Christmas) bayramida bezatiladigan archa, ammo ko'plab mamlakatlarda u Yangi yil bayrami bilan ham bog'lanadi.

New Year tree – Yangi yil bayrami uchun bezatilgan archa, bu atama asosan sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqalgan Yangi yil archasini ifodalashda ishlatiladi.

Yuqoridagi lug'aviy ma'nolarni o'rganib chiqqan tarjimon publitsistik matndan olingan parchaning tarjimasini quyidagicha ifodalagan va adekvat tarjimaga erisha olgan deb hisoblash mumkin:

*"**The New Year Tree**, installed on the square in the center of Navoi, is 30 meters high."* [7]

Publitsistik matnning xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, mazkur turdagi matnlar zamon talabiga moslashuvchan va kishilik jamiyatidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hamda boshqa sohalarda bo'layotgan barcha o'zgarishlar, yangilanishlarni o'zida muntazam aks ettirib bora oladi. Bu jarayon esa tarjimondan tilshunoslikda, tarjimashunoslikda, uslubiyat va boshqa jabhalarda paydo bo'layotgan zamonaviy bilimlarni o'z vaqtida o'zlashtirib, mavjud bilimlar bilan integratsiyalab borishini talab etadi. Globallashuv davri o'zbek tili publitsistik matnlarida zamon talabi natijasida jurnalistlar tomonidan o'zbek lingvomadaniyatida avvaldan mavjud bo'lgan, mahalliy aholi tomonidan iste'molda bo'lgan lingvomadaniy birliklar o'rnida globallashuv natijasida tilga kirib kelayotgan sinonimlarini, ya'ni yangi ma'nodoshlarini ishlata boshlayapti. Buning natijasida o'quvchida mazkur birliklarning lug'aviy ma'nosi hamda asl mohiyatini tushunish va qo'llanish o'rnini aniq bilmaslik kabi holatlar tez-tez uchramoqda. Mazkur holatlarning oldini olish uchun tarjimonlar tilning lug'at sathi bilan faol ishlashiga to'g'ri kelmoqda.

Y.Odilovning fikriga ko'ra, asliyat tilini va milliylikni saqlash nuqtai nazaridan qaralsa, hozirgi kun publitsistik matnlarda bot-bot qo'llana boshlagan *rieltor* (*makler* so'zi ham) leksemasini o'zbek tilida mavjud bo'lgan *dallol* so'zi bilan almashtirish o'zbek xalqiga xos

lisoniy manzarasini ham, lingvomadaniy olamning konseptual manzarasini ham yangi tushuncha bilan boyitmaydi. [3, 3]

O'z navbatida tilning lug'at hajmini oshiradi va o'rganuvchilardan o'zlashtirish va qo'llashda e'tiborli bo'lishni talab etadi, xolos. Chunki ikkala leksema ham *"savdo-sotiqda oluvchi bilan sotuvchi o'rtasida vositachilik qiluvchi, molga narx qo'yib, ularni kelishtiruvchi kishi"* lug'aviy ma'nosiga ega. [6]

Hozirgi kunda xorijiy leksikograflar tilning madaniy sathini tadqiq etilishi, tilda mavjud lug'atlarning tarkibining boyitilishi va tilning lingvomadaniyatga doir leksik hamda frazeologik birliklarining tahlil etilishida muhim rol o'ynovchi yangi lug'atlar yaratmoqda. Bu kabi leksikogragik birliklar tadqiqotchi va nazariyotchilar, qolaversa, tarjimonlar uchun ham dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq yurtimizda bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar mavjud. Shunga qaramasdan lingvomadaniy birliklar yaratilishiga doir ishlar bir muncha orqada qolmoqda va oqsamoqda.

Leksikograflarning ta'kidlashicha, lingvomadaniy birliklar lug'atiga milliy-madaniy mazmunga ega bo'lgan, ya'ni milliy tarix va madaniyat bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot va assotsiatsiyalarga ega bo'lgan til birliklari kiritilishi lozim. Bunday birliklar barcha o'zbeklar uchun tanish bo'lishi va, shuningdek, tanishish imkoniyatini taqdim eta olishi bilan xarakterlanishi va quyidagi toifalarni o'z ichiga olishi kerak:

- tabiat, milliy tarix va madaniyat hodisalari va faktlarini nomlaydigan so'z va iboralar;
- o'ziga xos nomlar: toponimlar va antroponimlar (tarixiy shaxslar, davlat arboblari, olimlar, yozuvchilar kabi real odamlarning ismlari hamda folklor va adabiyotdagi xayoliy qahramonlarning nomlari);
- taniqli adabiy asarlar, tasviriy san'at, musiqa, teatr va kinoga oid nomlar.

Bu turdagi lug'atlar boshqa turdagi lug'atlardan farqli ravishda faqat "madaniy asosga ega bo'lgan til birliklarini" o'z ichiga oladi. Lekin qo'llanilishi jihatidan filologik lug'atlar sirasiga kiruvchi izohli lug'atlar kabi izohlanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, lingvomadaniy lug'atlar boshqa lug'atlardan ko'ra chuqurroq va aniqroq lug'at maqolasiga ega bo'lishi lozim.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, publitsistik matnlarda uchrovchi lingvokulturologik birliklarning tarjimasi jarayonida leksikografik yondashuvning ahamiyati alohida tadqiq etilishi kerak. Lingvokulturologik birliklar milliy madaniyat, tarix va mentalitetni aks ettiruvchi vositalar bo'lib, ularni to'g'ri tarjima qilish madaniy ma'nolarni saqlab qolishda muhimdir. Zamonaviy tarjima jarayoni leksikografik manbalar, jumladan, lingvokulturologik lug'atlar va terminologik bazalardan foydalanishning zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Tarjima jarayonida bunday birliklarning ma'nosini to'g'ri talqin qilish va kontekstga mos ekvivalentlarni topish millatlararo muloqotning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maqolada amaliy misollar orqali lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishdagi muammolar va ularning yechimlariga doir qarashlar bayon etilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alekseeva I. S. Introduction to translation studies. St. Petersburg: 2004. Academia.
2. Lyusyy A. Translations: The advent of new meanings. Kosmopolis: 2003. – 532
3. Odilov Y. Publitsistik matn va leksik taraqqiyot. "Til va adabiyot ta'limi" ilmiy-metodik jurnal. 2021. 3 b.
4. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 248 b.
5. Vermeer H. Translation as culture Transfer. Tubingen. 1986. – 50 b.

6. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. – 270 б.

INTERNET RESURLARI

7. <https://izoh.uz/word/dalloi>
8. <https://uza.uz/posts/670045>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).